

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SH.ASAMXODJAYEVA

**“INVESTITSIYALARNI TASHKIL
ETISH VA MOLIYALASHTIRISH”**

**FANIDAN AMALIY MASHG'ULOT UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT - 2017

Tuzuvchi Sh.Asamxodjayeva. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanidan amaliy mashg’ulot uchun uslubiy qo’llanma. - T.: TMI, 2017 yil. 50 bet.

Ushbu uslubiy qo’llanma bakalavriaturaning barcha ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanidan amaliy mashg’ulotni o’tkazish bo’yicha tavsiyalar keltirilgan.

Amaliy mashg’ulot uchun uslubiy qo’llanma kafedra (2017 yil ____dagi ____ - sonli) majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun institut o’quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

L.Zoyirov

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti Uslubiy kengashi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. ____ 2017 yil ____-sonli majlis bayoni.

Kengash raisi

I.Qo’ziyev

Taqrizchilar:

X.Imomov, TDIU, “Moliya va soliqlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

L.Zoyirov, TMI, “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi mudiri, i.f.n.

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini takomillashtirish, yuqori malakali, yuksak kasbiy, ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni ko'zda tutmoqda.

Ma'lumki, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda amaliy mashg'ulotlarni sifatli va faol tarzda o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanini bakalavriaturaning barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitish ko'zda tutilgan.

“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanining asosiy maqsadi – talabalarda investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, investitsiyalarni jalb etish, davlat investitsiya dasturini shakllantirish, investitsiya loyihalarini baholash bo'yicha yo'nalishga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga investitsiyalar, ularning turkumlanishi, moliyalashtirish manbalarini aniqlash, investitsiya loyihalarini samaradorligini baholash, noan'anaviy usullarni o'rganish va tatbiq etish, investitsiyalarni moliyalashtirishda munosib investitsiya loyihalarini tanlab olish, loyihaning investitsion va moliyaviy rejasi bilan tanishtirishni, loyihaviy moliyalashtirishning mohiyatini, loyihani boshqarishning tashkiliy tizimini, tashkiliy modellashtirishni avtomatlashtirishning zamonaviy usullarini hamda loyihani amalga oshirish tartibini o'rgatishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta ta'mirlash, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va shu orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda “Investitsiya” fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, ushbu qo'llanmada “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotni samarali tashkil etish va o'tkazishni ko'zlab, ma'lum uslubiy taklif va tavsiyalar berish maqsad qilib qo'yildi.

“INVESTITSİYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH” FANI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGİYALAR VA ULARNING MAZMUN-MOHİYATI

“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanining amaliy mashg'ulotlarida ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

Insert jadvali: mustaqil o'qish, amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi; oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster: ma'lumot xaritasini tuzish va barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Toifali jadval: toifa – mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy), ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi; tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval: o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali: matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi; tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko'nikmalarini beradi.

T –jadval: bitta kontsepsiya (ma'lumot)ning jihatlarini o'zaro solishtiradi (ha/yo'q, ha/qarshi), tanqidiy mushohadani rivojlantiradi.

Loyihalash metodi: kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum: bu uslubda qo'yilgan savol, muammo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlarda faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs: o'z fikrini ifoda etishni hohlovchilar orasida biron-bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar: eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi: muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Keys stadi: talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni echishni o'rganish metodi.

Shuningdek “Investitsiya” fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (COMFAR – Computer Model for Feasibility Analysis and Reporting, PROSPIN – PROject Profile Screening and Preappraisal Information system, “Project Expert”, “Alt-Invest”, “FOCCAL”, “Investor 4.1”, “TEO-INVEST”, Micrasoft Excel, Micrasoft PowerPoint), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

“INVESTITSİYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH” FANIDAN O'TILADIGAN MAVZULAR VA TALABALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Bakalavriat ta'lim yo'nalishida “Investitsiyalarni tashkil etish va

moliyalashtirish” fanidan o’tiladigan mavzular:

1. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.
2. Investitsiya jarayonlarining mazmuni va asosiy bosqichlari.
3. Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati.
4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli.
5. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o’rni.
6. Investitsiya faoliyatida kapital qurilish.
7. Davlat investitsiya dasturi.
8. Investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash.
9. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari.
10. Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar.
11. Investitsiya faoliyatini kreditlash.
12. Investitsiyalarni moliyalashtirishning lizing mexanizmi.
13. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish.
14. Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish.
15. Nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish.
16. Investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo’llari.

Tavsiya etilayotgan mavzular bo’yicha ta’limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari, pedagogik va informatsion - kommunikatsion (mediata’lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron-didaktik) texnologiyalari majmualari tarzda qo’llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kompyuter dasturlari (jumladan, “TEO invest”) yordamida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashni o’rganish uchun talab etiladigan manbalar nazariy-amaliy jihatdan shakllantiriladi va olingan ma’lumotlar o’rganiladi.

Mazkur fan bo’yicha bakalavr quyidagilarni bilishi va ulardan foydalana olishi, shu bilan birga ma’lum ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari kerak:

- investitsiyaning turlari va shakllari;
- investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish usullari;
- investorlarning huquq va majburiyatlari;
- investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar haqida tasavvurga ega bo’lishi;
- investitsiya dasturini shakllantirish va nazorat qilish tartibini;
- kapital qo’yilmalarni moliyalashtirish tartibini;
- kapital qurilishda loyihalashtirish va kapital qurilish ishlarini olib borish usullarini;
- investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish ochish shartlarini;
- lizing operatsiyalarini tashkil etish va lizing to’lovlari summasini aniqlashni;
- investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish va investitsiya risklarini boshqarishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, turlari, funktsiyalari, ob’ektlari va sub’ektlari to’g’risida;
- xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning ob’ektiv zarurligi to’g’risida;

- investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida;
- investitsiya siyosati, uning mazmuni va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi xususiyatlari hamda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida;
- investitsiya faoliyatining qonuniy-me'yoriy bazasi to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risida;
- investitsiyalarni moliyalashtirish usullari;
- investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish, kreditlash, lizing, forfeyting, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish to'g'risida;
- kapital qurilish va "qurilish industriya"si to'g'risida;
- investitsiya risklari va ularni boshqarish yo'llari to'g'risida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
- investitsiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha;
- investitsiya faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha;
- investitsiya dasturini shakllantirish bo'yicha;
- kapital qurilishning smeta qiymatini aniqlash bo'yicha;
- kapital quyilmalarni kreditlash bo'yicha;
- investitsiya risklarini boshqarish bo'yicha malakalarga ega bo'lishi kerak.

"Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fani umumkasbiy fan hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, matematik programmashtirish, iqtisodiy geografiya), umumkasbiy (iqtisodiy nazariya, statistika, pul, kredit va banklar, moliyaviy menejment, soliq va soliqqa tortish, sug'urta nazariyasi va h.k.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

"Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanining ishlab chiqarishdagi o'rni aynan investitsiyalarni amalga oshirish uchun maqbul loyihalarni tanlab olish, ularni moliyalashtirishning optimal variantlarini ishlab chiqish, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarni boshqarishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birgalikda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi mazkur fanning ishlab chiqarishdagi yuqori ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

"Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanining ilmiy va amaliy ahamiyatini oshib borishi, o'z navbatida bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fani bo'yicha chuqur bilim va malakaga ega bo'lishlarida amaliy mashg'ulot darslari sifatini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shuni ham aytish lozimki, amaliy mashg'ulotni tashkil etishning shakl va usullari nihoyatda ko'p. Bulardan qaysi birini tanlash va foydalanish muayyan fanga, o'qituvchining maqsad va vazifalariga, qolaversa uning tajriba va mahoratiga bog'liqdir.

“INVESTITSİYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH” FANINING HAR BIR MAVZUSI BO’YICHA MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARI

1-MAVZU. INVESTITSİYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

“Investitsiya” faninng predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan uzviy bog’liqligi. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Investitsiyalarning maqsadlari va diversifikatsiyalanishi. Investitsiyalarning tasniflanishi. Asosiy fondlarning shakllanishida kapital qo’yilmalarning roli. Moliyaviy va real investitsiyalarning o’zaro bog’liqligi. Investitsiyalarni o’stirish omillari. Jamg’armalar – investitsiyalar manbasi sifatida. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.

1-topshiriq. Investitsiyalar, uni tashkil etish va moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati mavzusidagi tayanch iboralarni izohlang:

- investitsiya, investitsiyalash, moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, investitsiyalarni klassifikatsiyalash, bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar, investitsiyani iqtisodiy mohiyati, investitsiya loyihalari, investitsiya faoliyati.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish sharoitida investitsiyaning asosiy yo’nalishlarini keltiring?
2. Investitsiyalar, uni tashkil etish va moliyalashtirishning zarurligi nimada?
3. Investitsiyani mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga bo’lgan ob’ektiv zarurat nimalar bilan belgilanadi?
5. Investitsiyalar kapital qo’yilmalardan qanday farqlanadi?

3-topshiriq. “Investitsiya” tushunchasiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan fikrlarni o’rganing va tahlil qiling:

Prof. D. G’. G’ozibekov: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag’lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko’zlangan samarani olishdan iborat bo’ladi”.


Prof. N.H. Haydarov: “Investitsiya – bu mulk shaklidan qat’iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko’rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o’z boyluklarini qonun doirasida bo’lgan har qanday tadbirkorlik ob’ektiga sarflashidir”.

Rossiyalik iqtisodchi-olim L.Igoshina tomonidan: «investitsiyalar – pulni saqlash, ko’paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta’minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo’lgan har qanday vosita sifatida ifodalanadi».

Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati (1990 yil) U.Sharp ta'kidlashicha: «investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir».

4-topshiriq. Quyidagi chizmalardagi so'roq belgisi qo'yilgan joylarni to'ldiring va izohlang. (1-2-chizmalarga qarang).

1-chizma



2-chizma

Investitsiya faoliyati ob'ektlarini turkumlash	
Moliyaviy investitsiyalar ob'ektlari	Real investitsiyalar ob'ektlari
?	?
?	?
?	?
?	?

2- MAVZU. INVESTITSIYA JARAYONLARINING MAZMUNI VA ASOSIY BOSQICHLARI

Investitsiyalash maqsadlari va yo'nalishlari. Investitsiyalash ob'ektlarini tanlash. Real investitsiyalarni amalga oshirish. Real investitsiyalarni o'zlashtirish jarayonlari. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari.

1-topshiriq. “Investitsiya jarayonlarining mazmuni va asosiy bosqichlari” mavzusidagi quyidagi tayanch iboralarni izohlang:

- Muqobil loyihalar, real investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, biznes reja, ustav kapital, kon'yunktura, investitsiya loyihasi, investitsiya loyihasining hayotiylik davri.


2-topshiriq. Real va moliyaviy investitsiyalarning o'zaro bog'liqligini misollar yordamida asoslang.

3-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan tadbirlar investitsiyaning qaysi turiga kirishini aniqlang.


Tadbirlar	Moddiy aktivga yo'naltirilgan investitsiyalar	Nomoddiy aktivga yo'naltirilgan investitsiyalar	Moliyaviy aktivga yo'naltirilgan investitsiyalar
Korxona ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun uskuna sotib oldi			
Investor bankning jamg'arma depozit hisobraqamiga mablag' joylashtirdi			
Korxona eskirgan uskunalarini zamonaviy texnika-texnologiyalarga almashtirdi			
Firma kontsessiya oldi			
Kompaniya tovarlarini sotish uchun mas'uliyati cheklangan jamiyat tashkil etdi			
Kompaniya ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari uchun xom ashyo sotib oldi			
Investor korxona obligatsiyalarini sotib oldi			
Kompaniya tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazdi			
Korxona ilmiy texnik salohiyatni kengaytirishga mablag' sarfladi			

4-topshiriq. Quyidagi chizmalardagi so'roq belgisi qoyilgan joylarni to'ldiring va izohlang. (1-3-chizmalarga qarang).


1-chizma



2-chizma



3-chizma.



5-topshiriq. T-sxemadan foydalanib korxonaning real va moliyaviy investitsiya obyektlarining to'g'risini yozib chiqing.

1. Real investitsiyalar korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga yo'naltiriladi;
2. Moliyaviy investitsiyalar korxonaning moliyaviy aktivlariga yo'naltiriladi;

3. Aksiya, obligatsiya kabi qimmatli qog'ozlar real investitsiya obyektlari hisoblanadi;

4. Real investitsiyalar asosida moliyaviy investitsiyalar rivojlanadi;

5. Rivojlangan mamlakatlarda asosiy investitsiya obyektlari moliyaviy aktivlardir.

Real va moliyaviy investitsiyalar.

To'g'risi	Noto'g'risi
1.	1.
2.	2.
3.	3.

3-MAVZU. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI

Investitsion faoliyat tushunchasi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etish omillari va usullari. O'zbekistonda investitsion faoliyatning me'yoriy-qonuniy bazasi. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faolligini ta'minlash vazifalari. Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlari. Globallashuv va chet el kapital migratsiyasining kuchayishi. Zamonaviy investitsion siyosatni amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko'chishini hisobga olish.

1-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Investitsion faoliyat turlari	15.	Huquqiy maqom
2.	Investitsion faoliyatga doir me'yoriy huquqiy asoslar	16.	Investitsiya munosabatlari qatnashchilarining huquqiy holati
3.	Investorlarga davlat tomonidan kafolatlarning berilishi	17.	Xalqaro huquq
4.	Investitsion siyosatning amalga oshirilishi	18.	Ichki va tashqi investorlar
5.	Ko'p tomonlama xalqaro konventsiyalar va kelishuvlar	19.	Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati orasidagi o'zaro bog'liqlik
6.	Investitsion faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy asoslar	20.	Qo'shma korxonalar
7.	Globallashuv va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlari	21.	Davlat investitsiyalari va xususiy investitsiyalar
8.	Turli iqtisodiy tizimlarda	22.	Bevosita investitsiyalar

	investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari		
9.	Xalqaro va milliy moliya tizimlari	23.	Portfel investitsiyalar
10.	Jahon bozorining investitsiya jarayoniga ta'siri	24.	Moliyaviy investitsiyalar
11.	Milliy investitsiya resurslari	25.	Kapital, innovatsiya, ijtimoiy investitsiyalar
12.	Investitsion siyosatni amalga oshirish bosqichlari	26.	Mahsulotlarni bo'lishish bo'yicha kelishuv
13.	Investitsiya jarayonlarini rivojlantirish modellari	27.	Kontsessiya shartnomalari
14.	Xorijiy korxonalar	28.	Real investitsiyalar

2-topshiriq. Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

F Fikringizni bayon eting.

S Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.

M Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U Fikringizni umumlashtiring.

3-topshiriq. Quyidagi T-jadvalni to'ldiring.

Investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari

<i>Ijobiy tomonlari</i>	<i>Kamchiliklari</i>
<i>T- jadval. O'zbekiston Respublikasida investorlarning huquqlari</i>	
<i>T- jadval. Investorga davlat tomonidan kafolatlarning berilishi</i>	

4-topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

<i>O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari</i>	<i>O'zbekiston Respublikasida investorlarning huquqlari</i>

5-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati va turlarini tavsiflab bering

2. “Investitsiya” va “kapital qo’yilma” tushunchalarining farqini tushuntirib bering
3. Investorlarning asosiy belgilari buyicha turkumlanishini tavsiflang
4. Investorlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirib bering
5. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda davlatning roli qanday?
6. Investitsiya faoliyati, uning ob’ekti va sub’ektlarini tavsiflang?
7. Investitsiya faoliyati ishtirokchisining huquq va majburiyatlariga nimalar kiradi?
8. O’zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati va uning asosiy tamoyillarini tushuntiring

6-topshiriq. Investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi bo’yicha quyidagi jadvalni to’ldiring va izohlang:

Faoliyat sohasi	Davlat organlari	Boshqarish ob’ektlari	Boshqarish mexanizmlari
Qonunchilik sohasida	?	?	?
Moliyaviy, iqtisodiy sohada	?	?	?
Funktsional sohada	?	?	?

4-MAVZU. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI

Xorijiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati. Xorijiy investitsiyalarni O’zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishning ob’ektiv zarurligi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari va shakllari. To’g’ridan-to’g’ri chet el investitsiyalari iqtisodiyotni modernizatsiyalash garovi. “Chet el investitsiyalari to’g’risida”gi va “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunlarining mazmuni, maqsadi va ahamiyati. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlari.

1-topshiriq. Quyidagi jadvalni bevosita va portfel investitsiyalarning o’ziga xos belgilari bilan to’ldiring.

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	?	?
Maqsadga erishish yo’llari	?	?
Maqsadga erishish usullari	?	?
Daromad shakllari	?	?

2-topshiriq. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, umumiy xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushini aniqlang va xulosani shakllantiring.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha dinamikasi

Yil	Xorijiy investitsiyalar (mln. AQSh dollari)	To'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (mln. AQSh dollari)
2003	602.1	166.7
2004	754.6	333.8
2005	746.6	545.5
2006	895.7	683.8
2007	1009,3	768,4
2008	1700	1258
2009	2869,6	2522
2010	2793,6	2400
2011	2900	2285,2
2012	2500	1975
2013	3055	2200
2014	3095	2320
2015	3300	2409
2016	3700	2850

3-topshiriq. TTXIning dunyo bo'yicha oqimiga ta'sir etuvchi salbiy omillarga misollar keltiring.

4-topshiriq. Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitallar migratsiyasi quyidagicha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

T-Sxema yordamida aniqlash

1. Chetga chiqarilayotgan kapital o'rnini qoplovchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilmaslik chetga kapital chiqaruvchi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;
2. Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitalni chetga chiqarish ularda bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;
3. Chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir qiladi;
4. Aholini ko'chib ketishi.

5-topshiriq. Mavzuni muloqat orqali yoritish uchun savollar.

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Xorijiy investitsiyalarni shakllari va turlari qanday?
3. Jahon kapital migratsiyasida transmilliy korporatsiyalarning o'ri qanday?
4. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish shakllarini o'rganing va ularning har biri bo'yicha respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalardan misol keltiring.
5. Respublikamizda xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillarini o'rganing.
6. Dunyoga mashhur transmilliy korporatsiyalarning o'ntasini tanlang, ularning faoliyatini o'rganing va O'zbekiston bilan hamkorligini tahlil qiling.

6-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Bojxona boji	11.	Valyuta siyosati
2.	Valyuta	12.	Yevro
3.	Valyuta kursi	13.	Nou-xau
4.	Xalqaro investitsion siyosat	14.	Transmilliy korporatsiyalar (TMK)
5.	Ko'p tomonlama xalqaro konventsiyalar va kelishuvlar	15.	Xorijiy investitsiyalar
6.	Investitsion faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy-xuquqiy asoslar	16.	Globalashuv va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlari
7.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	17.	Xalqaro moliya tashkilotlari
8.	Qo'shma korxonalar	18.	Portfel investitsiyalar
9.	Donor mamlakat	19.	Kontsessiya bitimlari
10.	Retsipiye mamlakat	20.	Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar

5-MAVZU. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI

Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar. Investitsiya muhitini baholash usullari. Investitsiya muhitida investitsion salohiyatni (tabiiy resurslar salohiyati, mehnat, ishlab chiqarish, innovatsion, moliyaviy salohiyatlar va iste'molchilik salohiyati) o'ri. Investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy tizim. O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari.

1-topshiriq. Quyidagi jadvalda keltirilgan omillar investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi qanday omil turiga kirishini aniqlang.

Omillar	Siyosiy omillar	Iqtisodiy omillar	Ijtimoiy omillar
Davlatning iqtisodiyotga			

aralashish darajasi			
Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi			
Ishchi kuchi qiymati			
Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli			
Davlat apparatining samarali ish yuritishi			
Inflyatsiya darajasi			
Soliq imtiyozlari			
Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi			
Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog'lomlashtirish bo'yicha siyosati ko'lami			
Aholining savodxonlik darajasi			
Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi			
Raqobat va bahoning erkinligi			
Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari			

2-topshiriq O'zbekiston iqtisodiyoti uchun quyidagi omillarni aniqlang.

Investitsiya salohiyati	Investitsiya shart-sharoitlari	Investitsiya risklari

3-topshiriq. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solish bo'yicha xorij tajribasini o'rganing va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini aniqlang.

4-topshiriq. Quyidagi jadvalda mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi risk darajasini baholashda qo'llaniladigan "BERI" indeksining mezonlari va salmog'i keltirilgan. Jadval ma'lumotlarini batafsil o'rganing va fikringizni bayon eting.

№	Mezonlar	Salmog'i %
1.	Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar hajmi	6
3.	Milliylashtirish: beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy hokimiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Devalvatsiya: devalvatsiya ta'siri, hamda korxona faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarning hayotiyligi	6
5.	To'lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga, hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
8.	Valyutaning konvertirlangani: milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati, hamda milliy valyutaning (korxonalarga zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
9.	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati, hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalarga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4

13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini echishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
14.	Qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
15.	O'zoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kaptaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

5-topshiriq. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida "A" mamlakat investitsiya muhitini BERI indeksi asosida baholang.

№	BERI indeksi mezonlari	bahosi	salmog'i, %	Indeks
1.	Siyosiy barqarorlik			
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat			
3.	Milliylashtirish			
4.	Devalvatsiya			
5.	To'lov balansi			
6.	Rasmiyatchilik masalalari			
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari			
8.	Valyutani konvertirlanganligi			
9.	Sharnomani amalga oshirish imkoniyati			
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar			
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati			
12.	Aloqa va transportni tashkil etish			
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor			
14.	Qisqa muddatli kredit			
15.	O'zoq muddatli kredit va shaxsiy kapital			
	JAMI			

6-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Inflyatsiya	7.	Investitsiya salohiyati
----	-------------	----	-------------------------

2.	Inflyatsiya darajasi	8.	Investitsiya jozibadorligi
3.	BERI indeksi	9.	Investitsion faollik
4.	Biznes	10.	Investitsion risk darajasi
5.	Konvertatsiyalanadigan valyuta	11.	“ICOR” ko’rsatkichi
6.	Xorijiy valyuta	12.	“Standart and Poor’s” tashkiloti

6-MAVZU. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH

Kapital qurilish va kapital qo’yilmalar. Yangi qurilish, ta’mirlash, kengaytirish, texnik qayta jihozlash. “Qurilish industriya”si tushunchasi. Mamlakat iqtisodiyoti uchun qurilish muddatini qisqartirishning ahamiyati. Qurilishning uch bosqichi: tayyorgarlik bosqichi, qurilish bosqichi, qurilish mahsulotini realizatsiyasi. Qurilish ishlab chiqarishning davomiyligi. Qurilishda xo’jalik yuritishning hissadorlik jamiyatlari shakllarini joriy etish. Qurilishning tashkiliy shakllari. Kapital qurilishda loyihalashtirish. Kapital qurilishda tanlovni tashkil etish. Buyurtmachi va pudratchining huquq va majburiyatlari. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi. Qurilish ob’ektning shartnoma narxlari. Kapital qo’yilmalar samaradorligini baholash. Kapital qurilishda nazorat ishlarini olib borish.

1-topshiriq. Quyidagi keltirilgan jadval ma’lumotlarini to’ldirib, asosiy kapitalga yo’naltirilgan investitsiyalarning asosiy yo’nalishlari bo’yicha xulosani shakllantiring.

Ko’rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		O’zgarishi	
	mln.doll.	%	mln.doll.	%	mln.doll.	%
Jami investitsiyalar, shundan	1195,54	100	1346,09	100		
- yangi qurilishga	518,71					
- modernizatsiya va qayta tiklashga				46,6		


2-topshiriq. Kapital qurilishni tashkil etishning pudrat va xo’jalik usullarining afzallik va kamchiliklarini ko’rsating.

Kapital qurilish usullari	Afzalliklari	Kamchiliklari
1. Pudrat usuli		
2. Xo’jalik usuli		


3-topshiriq. Quyidagi chizmalardagi ma'lumotlarni o'rganing va fikringizni bayon eting. (1-3-chizmalarga qarang).

1-chizma.


Kapital qo'yimlarning doiraviy aylanishi.



2-chizma.



**Korxonaning kapital qo'yilmalar harakatidagi foydani
turlari va shakllanishi**



4-topshiriq. Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Kapital qo'yilmalarning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Kapital qo'yilmalar va ularning texnologik tarkibi qanday?
3. Markazlashgan va markazlashmagan kapital qo'yilmalar haqida nimalarni bilasiz?
4. Kapital qo'yilmalarning samaradorligini oshirishning qanday yo'llari bor?
5. Kapital qo'yilmalarning qanday moliyaviy manbalarini bilasiz?
6. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda banklarning vazifalari qanday?
7. Asosiy ishlab chiqarish fondlari nima?
8. Amortizatsiya nima va amortizatsiya fondi qanday tashkil topadi?
9. Asosiy fondlarning doiraviy aylanishi qanday?
10. Foyda deganda nimani tushunasiz?
11. Korxonalar foydasi qanday tashkil topadi?

5-topshiriq. T-sxemadan foydalanib aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini aniqlang.

1. Asosiy vositalar. 2. Kapital qo'yilmalar. 3. Aylanma mablag'lari. 4. Pul mablag'lari. 5. Ish haqi. 6. Xom-ashyo. 7. Elektroenergiya sarfi. 8. Tovar moddiy zahiralar. 9. Bino, inshootlar. 10. Asbob-uskunalar. 11. Pul mablag'lari. 12. Kredit mablag'lari. 13. Mahsulot sotishdan tushgan tushum. 14. Foyda.

To'g'risi	Ta'lluqli emas
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

6-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Asosiy kapital	7.	Pudratchi
2.	Da'vogar	8.	Oferta
3.	Kapital qurilish	9.	Tender komissiyasi
4.	Kapital investitsiyalar	10.	Kapital qurilishni tashkil etishning xo'jalik usuli
5.	Kapital qurilishni tashkil etishning pudrat usuli	11.	Smeta qiymati
6.	Tender	12.	Texnik-iqtisodiy asosnoma

7-MAVZU. DAVLAT INVESTITSIYA DASTURI

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi, uning mazmuni, asosiy maqsadi, shakllantirish tartibi va muddatlari. Kapital qo'yilmalarni rejalashtirish. Muhim investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati. Investitsiya loyihalarining adres dasturlari, adres ro'yxatlari: ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Investitsiya dasturlari asosida investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tashkil etish. Dasturni amalga oshirish ustidan nazorat.

1-topshiriq. Test savollarida to'g'ri javobni belgilang.

1. Investitsiya dasturining moliyalashtirish manbalari tasniflanishini ko'rsating?

- Davlat investitsiyalari
- Ichki va tashqi, xususiy investorlar
- Markazlashgan va markazlashmagan kapital qo'yilmalar
- Real va moliyaviy

2. Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi monitoringi kim tomonidan olib boriladi?

- a. Moliya vazirligi
- b. Iqtisodiyot vazirligi
- c. Vazirlar Mahkamasi
- d. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi

3. So'nggi yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida qaysi manbalarning ulushi yuqori salmoqqa ega?

- a. Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar
- b. Davlat byudjeti
- c. Aholi va korxona mablag'lari
- d. Tijorat banklari kreditlari

4. Quyidagi keltirilgan moliyalashtirish manbalaridan qaysi biri markazlashgan investitsiyaga kirmaydi?

- a. Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar
- b. Tijorat banklari kreditlari
- c. Byudjet mablag'lari
- d. Byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari

5. Davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar uchun tenderlarni qaysi davlat organi tashkillashtiradi?

- a. Moliya vazirligi
- b. Iqtisodiyot vazirligi
- c. Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi
- d. O'zbekinvest sug'urta kompaniyasi

6. Investitsiya loyihasi – bu....

- a. Foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida investitsiyalashni amalga oshirish bo'yicha o'zaro bog'liq tadbirlar majmuasi
- b. Davlatning investitsiya resurslarni jalb qilish, joylashtirish va samarali ishlatish bo'yicha chora tadbirlar yig'indisi
- c. Xalq iste'mol mollarini olib sotish va maksimal spekulativ foyda olish bilan bog'liq faoliyat
- d. Korxonalar tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayoni


7. Qaysi davlat organi Investitsiya dasturini shakllantiradi va muvofiqlashtirib boradi?

- a. Moliya vazirligi
- b. Iqtisodiyot vazirligi
- c. Vazirlar Mahkamasi
- d. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi

8. Investitsiya dasturi qaysi qonuniy hujjat bilan tasdiqlanadi?

- a. Vazirlar Mahkamasi Qarori
- b. Vazir Mahkamasi farmoyishi
- c. Markaziy Bank yo'riqnomasi
- d. Prezident Qarori

2-topshiriq. Davlat Investitsiya Dasturining moliyalashtirish manbalarini o'rganib, berilgan topshiriqni bajaring.



2011-2014 yillar uchun Davlat Investitsiya Dasturining moliyalashtirish manbalari qiymati quyidagi jadvalda berilgan.

mln. so'mda

Moliyalashtirish manbalari	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	2 069 185	3 524 824	3 236 108	4 006 580
- Byudjet mablag'lari	950 000	1 059 254,4	1 300 000	1 500 000
- Respublika yo'l fondi	609 800	680 796	921 572	976 200
- Korxona mablag'lari	7 536 261	6 835 725	8 150 655	8 556 532
- Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini tiklash, kapital ta'mirlash va jihozlash fondi	162 104	545 836	623 500	729 472
- Aholi mablag'lari	2 584 800	3 237 604	4 481 988	5 720 330
- Oliy ta'lim	162104	46 997,6	113 435	173 394

mussasalarini texnik material ba'zasini ta'mirlash fondi				
- To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar va kreditlar(so'mdagi ekvivalenti)	3 835 190	4 340 656	4 563 159	6 172 998
- ATB "Qishloq qurilish bank"ning namunali loyihalar bo'yicha imtiyozli kreditlari	196 289	222 070	426300	825 800
- O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot fondi(so'mdagi ekvivalenti)	1 353 527	1 432 400	1 623 833	1 981 958
- Hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'mdagi ekvivalenti)	1 376 130	1 701 901	1 750 783	2 808 410
- qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishiga(so'mdagi ekvivalenti)	171 750	301 564	250 560	231 240
- Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi	105 000	115 560	131 000	156 600
Bolalar sportini rivojlantirish fondi	139 930	158 147	218 243	222 300

Jadval ma'lumotlari asosida quyidagilarni aniqlang :

1. Markazlashtirilgan investitsiyalar qiymatini;
2. Markazlashmagan investitsiyalar qiymatini;
3. Jami moliyalashtirish manbalarida markazlashtirilgan investitsiyalar ulushini;
4. Jami moliyalashtirish manbalarida markazlashmagan investitsiyalar ulushini;
5. Jami manbalarning yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasini.

8-MAVZU. INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari. Moliyaviy baholash. Iqtisodiy baholash. Oddiy yoki statistik usul. Diskont usullari. Sof joriy qiymatni aniqlash (NPV). Foydaning ichki me'yori (IRR). Investitsiyalar rentabelligi usuli (PI). Investitsiyalarni qoplash muddati usullari (PP, DPP).

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Pul oqimi tushunchasi va uning tasniflanishi qanday?
2. Diskontlash tushunchasi va diskontlash koeffitsienti
3. Joriy qiymat va kelgusi qiymat deganda nimani tushunasiz?
4. Annuitet va perpetuitetning mazmunini aytib bering.

2-topshiriq. Quyidagi misollarni o'rganing.

Misol. Faraz qilaylik, siz bankdagi maxsus hisob raqamingizga har yili yilning yakunida 1000 so'mdan depozit bo'yicha yillik 10% stavkasida 3 yil davomida pul joylashtirasiz.

Savol tug'iladi, uch yildan so'ng siz qanday summaga ega bo'lasiz? Buning uchun siz kiritgan mablag'larning (investitsiyalarning) kelgusi qiymatini aniqlaymiz.

1-jadval.

Annuitetning kelgusi qiymatini aniqlash

Har yillik to'lovlar soni	Foizli daromad keltiruvchi vaqt davri (yil)	Yillik qo'yilmaning kelgusi qiymati (ming so'm)
1	2	$1,00 \times (1+0,10)^2 = 1,21$
2	1	$1,00 \times (1+0,10)^1 = 1,10$
3	0	$1,00 \times (1+0,10)^0 = 1,00$
Jami	Kelgusi qiymat	3,31

Misol. Faraz qilaylik, investitsiya loyihasi ketma-ket uch yil davomida yilning oxirida 1000000 so'm olishini ko'zda tutayapti. Har bir kelgusi pul tushumlar uchun keltirilgan (joriy) qiymatni (yillik 10% darajasidagi diskontlashning foiz stavkasidan kelib chiqqan holda) formula orqali aniqlashimiz mumkin.

$$PV = \frac{FV_n}{(1+k)^n} = FV_n \frac{1}{(1+k)^n}$$

Sof joriy qiymatning hisoblanishini shunday tasavvur qilish mumkin.

2-jadval.

Joriy qiymatning hisoblanish jarayoni.

Yillar	Pul oqimi (daromadlar tushumi, mln. so'm)	Kelgusi pul tushumlarining joriy qiymati (mln. so'm)
1	1,0	$1,00 \left[\frac{1}{(1 + 0,10)^1} \right] = 0,909$
2	1,0	$1,00 \left[\frac{1}{(1 + 0,10)^2} \right] = 0,826$
3	1,0	$1,00 \left[\frac{1}{(1 + 0,10)^3} \right] = 0,751$
Jami	Joriy qiymat	2,486

3-topshiriq. Nazorat va muhokama uchun savollar.

- 1.Sof joriy qiymat usulining ta'rifini aytib bering.
- 2.Sof joriy qiymatni hisoblash formulasi qanday ko'rinishga ega?
- 3.Sof joriy qiymatni hisoblashning Gordon formulasini bilasizmi?
- 4.Sof joriy qiymatni baholashdan olingan natijalarga asolanib loyiha bo'yicha qanday xulosalar qilish mumkin?
- 5.Foydaning ichki me'yori ko'rsatkichi nima uchun qo'llaniladi?
- 6.Baryerli koeffitsient qanday ko'rsatkich hisoblanadi va u nima uchun qo'llaniladi?
- 7.Investitsiyalar rentabelligi va sof joriy qiymat ko'rsatkichlari o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
- 8.Diskontlashning qoplash muddati usulining qanday afzalliklari mavjud?

4-topshiriq. Masalaning yechimini toping.

Korxona yangi texnologiya sotib olishga oid investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda:

- uskuna qiymati – 200 mln.so'mga teng;
- ekspluatatsiya muddati – 5 yil;
- uskunaning eskirish qiymati to'g'ri chiziqli amortizatsiya hisoblash usuli yordamida aniqlanadi.
- ushbu uskunaning likvidatsion qiymati uning boshlang'ich qiymatining 10% ini tashkil etadi.

Mahsulot sotishdan tushadigan sof tushum prognoz ma'lumotlarga asosan, quyidagilarni tashkil etadi(mln.so'mda):

1- yil	136
2- yil	150
3- yil	168
4- yil	170
5- yil	165

Mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar (amortizatsiyasiz) quyidagicha: 1- yilda 69 mln.so'mga teng va qolgan yillarda har yili 3 % dan ortib boradi.

Korxona rahbariyati investitsiya loyihasini 30%ini o'z mablag'lari evaziga, qolgan qismini kredit evaziga moliyalashtirishni rejalashtirgan.

Kredit bahosi-18%, foiz to'lovlari va qarzning qaytarilishi har yarim yilda.

O'z mablag'larining "bahosi" – 19 %

Foyda solig'i – 16 %ga teng.

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagilarni aniqlang:

1. Investitsiya loyihasida ishtirok etayotgan uskunaning har yil uchun amortizatsiya summasini;

2. Har yil uchun sof foyda summasini;

3. Investitsiya loyihasi bo'yicha 5 yil uchun sof pul oqimini;

4. Kapitalning o'rtacha tortilgan qiymatini;

5. Sof joriy qiymatni;

6. Rentabellik indeksini;

7. Diskontlashtirilgan qoplash muddatini;

8. Foydaning ichki me'yorini.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida investitsiya loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligiga baho bering va xulosa yozing.

5-topshiriq. T-sxemadan foydalanib mavzu bo'yicha xulosalarni shakllantiring.

Investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholash usullari to'rt guruhga bo'linadi;

Sof joriy qiymatni aniqlashda qo'llaniladigan diskont me'yorini investorning o'zi uchun undan kichigi samarasiz deb topilgan minimal foyda me'yorini ifodalaydi;

$IRR > HR$ holatida loyiha samarasiz bo'lib, uni amalga oshirish mumkin emas. $IRR < HR$ holatida loyihani amalga oshirish samarali hisoblanadi. $IRR = HR$ holatida loyihani amalga oshirishdan foyda ham, zarar ham ko'rilmaydi;

Investitsiyalarning rentabelligi usuli (**PI**) diskontlashtirilgan investitsiya xarajatlarining diskontlashtirilgan daromadlarga nisbatini hisoblab topishga asoslangan

Investitsiyalarning rentabelligi ko'satkichi sof joriy qiymat miqdoriga bog'liq bo'lib, uning o'sishi bilan bu ko'rsatkich ham kamayadi va aksinchadir;

$PI > 1$ bo'lganda investitsiya loyihasini amalga oshirish foydali hisoblanadi. $PI < 1$ holatida loyihani amalga oshirishga qabul qilib bo'lmaydi. $PI = 1$ bo'lganda loyihani amalga oshirish foyda ham, zarar ham keltirmaydi;

Diskontlangan qoplash muddati investitsiyalarni qoplash (nominal qoplash) muddatidan farq qiladi va hamisha undan kichik hisoblanadi.

To'g'risi	Noto'g'risi
1.	1.
2.	2.
3.	3.


6-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Samaradorlik	7.	Pul oqimi
2.	Sof joriy qiymat	8.	Investitsiyalarning qoplanish muddati
3.	Foydaning ichki me'yori	9.	Iqtisodiy samaradorlik
4.	Rentabellik indeksi	10.	Investitsiya loyihasi
5.	Foydaning oddiy me'yori	11.	Kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati
6.	Aktivlar rentabelligi	12.	Diskontlash

9-MAVZU. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, maqsadli tushumlar va boshqalar). Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Investitsiya faoliyatini qarz mablag'lari evaziga moliyalashtirish. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari.

1-topshiriq. Quyidagi chizmani to'ldiring.



2-topshiriq. Nazorat savollari.

1. Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish
2. Investitsiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy usullari
3. Moliyalashtirish usullari va ularga tavsif
4. Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish
5. Investitsiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy usullari
6. Investitsiyalarni moliyalashtirishda bank kreditining roli
7. Investitsiyalarni moliyalashtirishda chet el investitsiyalarning o'rni

3-topshiriq. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibini aniqlang.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari				
?	?	?	?	?

4-topshiriq. Quyidagi test savollariga javob toping.

1. Investitsiya dasturining moliyalashtirish manbalari tasniflanishini ko'rsating?

- a. Davlat investitsiyalari
- b. Ichki va tashqi, xususiy investorlar
- c. Markazlashgan va markazlashmagan kapital qo'yilmalar
- d. Real va moliyaviy

2. Korxonalarda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalarini ko'rsating?

- a. Davlat byudjeti mablag'lari
- b. Davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari fond mablag'lari
- c. Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lari va qarz mablag'lari
- d. Davlat byudjeti va tijorat banklarining kreditlari

3. Quyidagilardan qaysi biri moliyalashtirishning o'z manbasi hisoblanadi?

- a. Qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari
- b. Taqsimlanmagan foyda, obligatsiyalar
- c. Ustav kapitali, pay va ulushlar
- d. Ustav fondi, foyda, amortizatsiya ajratmalari

4. Quyidagilardan qaysi biri korxonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning jalb qilingan manbasi hisoblanadi?

- a. Amortizatsiya ajratmalari
- b. Taqsimlanmagan foyda

- c. Aksiyalar va ularning qo'shimcha emissiyasi
- d. Obligatsiyalarni chiqarish

5. So'nggi yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida qaysi manbalarning ulushi yuqori salmoqqa ega?

- a. Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar
- b. Davlat byudjeti
- c. Aholi va korxona mablag'lari
- d. Tijorat banklari kreditlari

6. Quyidagi keltirilgan moliyalashtirish manbalaridan qaysi biri markazlashgan investitsiyaga kirmaydi?

- a. Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar
- b. Tijorat banklari kreditlari
- c. Davlat byudjeti mablag'lari
- d. Aholi va korxona mablag'lari

5-topshiriq. Quyidagi jadvalni mos tarzda to'ldiring.

Manbalarning nomlanishi	O'z mablag'lari	Qarz mablag'lari	Jalb qilingan manbalar
Korxona foydasi			
Bank krediti			
Xorijiy investitsiyalar			
Aksiyalarning chiqarilishi			
Obligatsiyalarning chiqarilishi			
Xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari			
Korxonaning amortizatsiya ajratmalari			
Korxona zahira fondidagi mablag'lar			

6-topshiriq. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo'yicha xorij tajribasini o'rganing.

10-MAVZU. INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALAR

Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va tasniflanishi. Birlamchi moliyaviy vositalar. Hosilaviy moliyaviy vositalar. Firmaning investitsion jozibadorligini baholashda moliyaviy vositalarning roli. Qimmatli qog'ozlar investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida. Investitsiyalash manbalarini shakllantirishda kapital va ssuda bozorlarining roli. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish. Aksiyadorlik kapitali hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish.

1-topshiriq. Nazorat savollariga javob bering.

1. Investitsiya faoliyatida moliyaviy vositalarning maqsadi nimalardan iborat?
2. Qimmatli qog'ozlarning qanday turlari mavjud?
3. Aksiya va obligatsiyaga ta'rif bering.
4. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar nima?
5. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari kimlar?
6. Moliyaviy vositalar samaradorligini baholash usullari.

2-topshiriq. Quyidagi test savollariga javob toping.

1. Moliyaviy instrumentlar qanday funktsiyalarni bajaradi?

- a. Riskni pasaytirish
- b. Risklarni taqsimlash
- c. Investitsiyalarni baholash
- d. Jamg'arish, to'lov, iqtisodiyotda resurslarni qayta taqsimlash, risklarni pasaytirish


2. Qaysi moliyaviy instrumentlar to'g'ri mulkiy huquqlarni yoki qarzdorlik majburiyatlarini tasdiqlaydi?

- a. Hosilaviy moliyaviy instrumentlar
- b. Bevosita moliyaviy instrumentlar
- c. Birlamchi moliyaviy instrumentlar
- d. Imtiyozli moliyaviy instrumentlar

3. Belgilangan davr va yillik foizga ega bo'lgan qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'oz bu –


- a. Aksiya
- b. Obligatsiya
- c. Veksel
- d. Forvard

3-topshiriq. Moliyaviy instrumentlar yordamida resurslar harakatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlang.



4-topshiriq. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishini 2010-2015 yillar bo'yicha o'rganing va tahlil qiling.

5-topshiriq. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari.



6-topshiriq. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan portfel investitsiyalarga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillarni o'rganing va tahlil qiling.

Ijobiy omillar	Salbiy omillar

7-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Moliyaviy instrumentlar	7.	Oddiy aksiyalar
2.	Hosilaviy moliyaviy vositalar	8.	Imtiyozli aksiyalar
3.	Diller	9.	Birlamchi moliyaviy vositalar
4.	Obligatsiya	10.	Depozit sertifikatlari
5.	Xalqaro birja bozori	11.	Xazina majburiyatlari
6.	Likvidlilik	12.	Broker

11-MAVZU. INVESTITSIIYA FAOLIYATINI KREDITLASH

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning ob'ektiv zaruriyati Investitsiya faoliyatini uzoq muddatli kreditlash. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar aylanma mablag'larini kreditlash xususiyatlari. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti. Kreditni rasmiylashtirish tartibi. Korxonalarning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlari. Kredit bahosi, foiz siyosati. Asosiy qarz va unga to'lanadigan foizni undirish tartibi. Kreditdan foydalanish ustidan bank nazorati.

1-topshiriq. Quyidagi keltirilgan moddalar balansning qaysi bo'limiga kirishini aniqlang va jadvalda (+) belgisi bilan belgilang.

Moddalar	Majburiyatlar	O'z mablag'larining manbasi	Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar
Maqsadli tushumlar				
Debitor qarzdorlik				
Byudjetga soliqlar bo'yicha avans to'lovlari				
Ustav kapitali				
Sotib olingan xususiy aktsiyalar				
Qisqa muddatli bank kreditlari				
Ishlab chiqarish				

zahiralar				
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz				
Qimmatli qog'ozlar				
Kassadagi pul mablag'lari				
Kapital qo'yilmalar				
Joriy majburiyatlar				
Kelgusi davr to'lovlari uchun zahiralar				
Taqsimlanmagan foyda				

2-topshiriq. Ixtiyoriy korxona balans ma'lumotlarini o'rgangan holda, korxonaning kreditga layoqatliligini asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qiling.

3-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Bank krediti	7.	Kredit shartnomasi
2.	Annuitet to'lov	8.	Qayta moliyalashtirish stavkasi
3.	Differentsiallashgan to'lov	9.	Kreditor
4.	Kreditning bahosi	10.	Likvidlilik koeffitsienti
5.	Ipoteka krediti	11.	Qoplash koeffitsienti
6.	Sindikatlilik kreditlash	12.	Mustaqillik koeffitsienti

12-MAVZU. INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISHNING LIZING MEXANIZMI

Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati. Lizing turlari. Lizing krediti asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbai. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati. Moliyaviy lizingning zamonaviy ilg'or texnologiya, uskuna va jihozlarni joriy etishdagi qulayliklari. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rni. Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi. Lizing to'lovlari summasini aniqlash.

1-topshiriq. T-sxemadan foydalanib quyidagi savollardan lizingning turlari va ularning tarkibini yozib chiqing.

O'zbekistonda lizingni rivojlanish ahvoli qanday?
 Operativ lizingga izoh bering?
 Qaytaruvchi lizing nima?
 Lizing kreditlari nima?
 Xalqaro lizing nima?

To'g'risi	Noto'g'risi
1.	1.
2.	2.
3.	3.

2-topshiriq. Xalqaro lizingning modifikatsiyalari

Xalqaro lizing lizingning alohida bir turi bo'lib, bunda tomonlarning hech bo'lmaganda birortasi (yoki hammasi turli mamlakatlardan) boshqa mamlakatga tegishli bo'ladi, yoki tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo'shma kapitalga egadir. Xalqaro lizingning quyidagi modifikatsiyalari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri eksport va import, tranzit (bilvosita), to'g'ri bo'lmagan.

To'g'ridan-to'g'ri xalqaro lizingda bitim bo'yicha barcha operatsiyalar turli mamlakatlarning yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan tijorat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladi.

Tranzit (bilvosita) lizingda bir mamlakatdagi lizing beruvchi boshqa mamlakatdan kredit oladi yoki zarur bo'lgan uskunalarni sotib oladi va uchinchi bir mamlakatdagi ijarachiga etkazib beradi.

To'g'ri bo'lmagan lizingda lizing firmasi va iste'molchi bir mamlakatga tegishli bo'ladi, lekin lizing firmasi boshqa mamlakatda joylashgan bo'ladi.

3-topshiriq. Lizing jarayoni ishtirokchilari

<u>Ishlab chiqaruvchi</u> <u>(etkazib beruvchi,</u> <u>sotuvchi)</u>	?
<u>Lizing beruvchi</u>	?
<u>Ijarachi (lizing oluvchi)</u>	?

4-topshiriq. Lizing muomalalarining quyidagi turlarining har biriga ta'rif bering:

Operativ lizing, moliyaviy lizing, renting, xayring, sof lizing, to'liq lizing, ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing, levedj-lizing, paketdagi lizing, qaytariluvchi lizing.

5-topshiriq. Lizing operatsiyasi bosqichlarini o'rganing.

Bosqichlar	Bajariladigan ishlarning mazmuni
1 - bosqich	Lizing operatsiyalarini amalga tatbiq etishning boshlang'ich bosqichida lizing kompaniyasi umumiy tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Bungacha albatta, lizing kompaniyasi barcha hujjatlarni huquqiy jihatdan tartibga keltiradi, chunonchi, lizing loyihasining barcha xususiyatlari va shartnomalarini chuqur o'rganib chiqish, shular jumlasidandir. Mazkur bosqichda lizing olishga imkoniyati bor lizing oluvchilarning buyurtmalari ko'rib chiqiladi hamda olgan kredit mablag'larni o'z vaqtida qaytara olish imkoniyatlari to'la tahlil qilinadi, texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun sarflanayotgan mablag'larni maqsadga muvofiqligi hamda ularni kelgusida foyda keltirishi bilan bog'liq hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Shuningdek bu bosqichda biznes-plan tuzilib, unda bayon etilayotgan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi.
2 - bosqich	Bu bosqichda yuqorida bayon etilgan barcha hujjatlar rasmiylashtiriladi, ya'ni ular amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida tartibga keltiriladi. Bunda asosan zarurat tug'ilganda lizing to'lovlarini kafolatlash, biror mulkni garovga qo'yish bo'yicha shartnoma imzolash, shuningdek lizing shartnomasi va lizing bo'yicha Bosh shartnomani imzolash, lizing ob'ektlarini keltirish bilan bog'liq; shartnomani imzolash, lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan loyihalarni o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lar hisobiga moliyalash, keltirilgan texnika va texnologiya hamda uskunalarni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek lizing ob'ektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni sug'urtalash kabi qator muomalalar amalga oshiriladi.
3 - bosqich	Bu bosqich lizing to'lovlarini to'lash, monitoring, ya'ni lizing ob'ektlarini ishlatilishini hamda lizing to'lovlarini vaqtida to'lashni nazorat qilish, lizing ob'ektini lizing beruvchiga qaytarish yoxud uni lizing oluvchiga berish hamda lizing kompaniyasi tomonidan sarflangan qarzlarni qaytarish va hokazolarni o'z ichiga oladi.

6-topshiriq. Masalaning yechimini toping.

Investitsiya xarajatlari oshishini korxona foydasiga ta'sirini tahlil qiling.

Korxonaning mahsulot sotishdan tushgan tushumi birinchi yili 11000 mln. so'mni tashkil etadi. Bunda o'zgaruvchan xarajatlar 9300 mln. so'mni, doimiy xarajatlari 1500 mln. so'mni tashkil etadi.

Ikkinchi yili tushum oshib, 12 000 mln. so'mga etadi.

– Korxona tushumini oshishiga qanday investitsiya xarajatlari ta'sir o'tkazgan?

– Bunda korxona foydasi qanchaga o'sgan?

Agar korxona uchinchi yili doimiy xarajatlarni 1 %ga oshirsa, bu korxona foydasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

7-topshiriq. O'zbekiston Respublikasining lizing faoliyati bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganing.

8-topshiriq. Lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar faoliyatini tahlil qiling.

9-topshiriq. O'zbekistonda lizing faoliyatiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni misollar orqali asoslang.

10-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Lizing	7.	Operativ lizing
2.	Lizing beruvchi	8.	Qaytariluvchi lizing
3.	Lizing oluvchi	9.	Xalqaro lizing
4.	Lizing shartnomasi	10.	Renting
5.	Lizing to'lovlari	11.	Xayring
6.	Moliyaviy lizing	12.	Sof lizing

13-MAVZU. INVESTITSİYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tushunchasi. Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish xususiyatlari. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish sxemalari. Sindikatli kreditlash va uning yuzaga kelish tarixi. Sindikatli kreditlash xususiyatlari. Sindikatli kreditlashni tashkil etish.

1-topshiriq. Korxona holatini va uning investitsion qarori to'g'riligini tahlil qiling

Qo'shma korxonaning investitsion qaroriga ko'ra, birinchi yil bo'yicha daromad 12000 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Buning uchun o'zgaruvchan xarajatlar 10700 mln. AQSh dollarini va o'zgarmas xarajatlar 1100 mln. AQSh dollarini tashkil etishi kerak. Korxona ikkinchi yili mahsulot ishlab chiqarish hajmini 12 %ga oshirishni, boshqaruv kadrini ko'payishi munosabati bilan ish haqi xarajatlarini 7 %ga oshirishni rejalashtirmoqda. Korxona foydasini hisob kitob qilish orqali, shu yo'l bilan ishlab chiqarish hajmini oshirish samaralimi yoki yo'qligini aniqlang.

2-topshiriq. Nazorat savollariga javob bering.

1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Loyihaviy moliyalashtirishning qanday bosqichlari bor?
3. Loyihalarning texnik ekspertizasi qanday o'tkaziladi?

4. Loyihalarning iqtisodiy tahlili qanday olib boriladi?
5. Loyihaviy moliyalashtirishda risklar qanday aniqlanadi?
6. Loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi deganda nimani tushunasiz?
7. Loyihalarning hayotiyligining monitoringi qanday o'tkaziladi?

3-topshiriq. Test savollari

1. Loyihaviy moliyalashtirishning qanday turlari bor?

- a. O'z-o'zini moliyalashtirish va kreditlash
- b. Parallel va bosqichma-bosqich moliyalashtirish
- c. Parallel va perpendikulyar moliyalashtirish
- d. Venchurli va riskli moliyalashtirish

2. Sindikatli kreditlash ...

- a. Venchurli moliyalashtirishning bir ko'rinishi
- b. Loyihaviy moliyalashtirishning bir shakli
- c. Tijorat kreditining bir shakli
- d. Riskli moliyalashtirishning bir shakli

3. Banklarning kelishuv tuzib, bir loyihani kreditlash uchun birlashishi qanday ataladi?

- a. Kredit uyushmasi
- b. Bank assotsiatsiyasi
- c. Bank uyushmasi
- d. Bank sindikati

4. Sindikatli kreditlashdagi risklar banklar o'rtasida qanday taqsimlanadi?

- a. Sindikatning barcha ishtirokchilari o'rtasida teng miqdorda
- b. Sindikatda qatnashish ulushiga qarab
- c. Barcha risklarni etakchi bank o'z bo'yniga oladi
- d. Sindikatli kreditlashda investitsiya risklari minimal bo'ladi

5. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning asosiy xususiyati...

- a. Loyihalarni moliyalashtirishning turli usullari
- b. Chet el investitsiyasini jalb etgan holda loyihalarni moliyalashtirish
- c. Loyihalarni uzoq muddatli kreditlash
- d. Loyiha ishtirokchilari o'rtasida risklarni taqsimlagan holda loyihani moliyalashtirish

6. Loyihaviy moliyalashtirishning qaysi turida har bir bank qarz oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzadi va loyihaning o'ziga tegishli qismini moliyalashtiradi?

- a. Sindikatli kreditlash
- b. Mustaqil parallel moliyalashtirish

- c. Bosqichma-bosqich loyihaviy moliyalashtirish
d. Venchurli moliyalashtirish

4-topshiriq. Berilgan sxemani O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashda loyihaviy moliyalashtirishning o'rnini ko'rsatib, to'ldiring.

<i>Loyihaviy moliyalashtirishning maqsadi:</i>	<i>Loyihaviy moliyalashtirishning vazifalari:</i>	<i>Loyihaviy moliyalashtirishning sabablari:</i>																
<i>Loyihaviy moliyalashtirishning turlari</i> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse; margin-top: 10px;"> <tr><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td></tr> <tr><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td></tr> <tr><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td></tr> <tr><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td><td style="height: 30px;"></td></tr> </table> <i>Loyihaviy moliyalashtirishning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rne:</i>																		

5-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Loyihaviy moliyalashtirish	7.	Yetakchi bank
2.	Qarz oluvchiga nisbatan hech qanday regressiz bo'lgan loyihaviy moliyalashtirish	8.	Ishtirokchi bank
3.	Qarz oluvchiga nisbatan to'liq regressli loyihaviy moliyalashtirish	9.	Parallel loyihaviy moliyalashtirish
4.	Qarz oluvchiga nisbatan cheklangan regressli loyihaviy moliyalashtirish	10.	Bosqichma-bosqich loyihaviy moliyalashtirish
5.	Sindikatsiya	11.	Yirik investitsiya loyihasi
6.	Sindikatsiyalashgan kreditlar	12.	Birinchi darajali bank kapitali

14-MAVZU: INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

Innovatsiya tushunchasi. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar. Ilmiy va innovatsiya faoliyati tushunchasi. Innovatsiya faoliyati tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsiya faoliyati zaruriyati. Innovatsiya strategiyasining mohiyati. Korxonalarda innovatsiya strategiyasini shakllantirish.

1-topshiriq. Masalaning yechimini toping.

Korxona yangi texnologiya sotib olishga oid loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda:

- texnologiya qiymati – 10 p.b. ga teng;
- ekspluatatsiya muddati – 5 yil;
- uskunalarning eskirish qiymati oddiy amortizatsiya hisoblash usuli yordamida aniqlanadi.

Mahsulot sotishdan tushadigan tushum prognoz ma'lumotlarga asosan, quyidagilarni tashkil etadi: 6,8; 7,5; 8,4; 8,0; 6,4 p.b. Mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar (amortizatsiyasiz) quyidagicha: 1-yilda 3,4 p.b. ga teng va qolgan yillarda har yili 3 % dan ortib boradi.

Foyda solig'i – 24 %.

Kapitalning "bahosi" – 19 % ga teng.

Korxona rahbariyati qoplanish muddati 3 yildan ortiq bo'lmagan loyihalarni moliyalashtirishni rejalashtirgan.

Investitsiya loyihalarini samaradorligini baholashning statistik va dinamik usullaridan foydalanib, korxona uchun yuqorida keltirilgan loyihani amalga oshirish maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligini aniqlang.

2-topshiriq. Venchurli moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

<i>Ijobiy tomonlari</i>	<i>Kamchiliklari</i>
<i>O'zbekiston Respublikasida venchurli moliyalashtirishning huquqiy jihatlari</i>	
<i>Venchurli moliyalashtirishga davlat tomonidan kafolatlarning berilishi</i>	

3-topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

<i>O'zbekiston Respublikasiga innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari</i>	<i>O'zbekiston Respublikasida innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish omillari</i>

4-topshiriq. Innovatsion tadbirkorlik uch asosiy turga bo'linadi:

Bosqichlar	Bajariladigan ishlarning mazmuni
1 - tur	Mahsulot innovatsiyasi - ?
2 - tur	Texnologiya innovatsiyasi - ?
3 - tur	Ijtimoiy innovatsiyalar - ?

5-topshiriq. Dunyo mamlakatlarining innovatsiya yo'nalishlarini o'rganing hamda so'nggi yillarda yaratilgan innovatsion ishlanmalarni sanab bering.

6-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Innovatsiya	7.	Biznes farishtalari
2.	Innovatsion faoliyat	8.	Davlatning innovatsiya siyosati
3.	Innovatsion investitsiyalar	9.	Ilmiy-texnik va tajriba konstruktorlik ishlari
4.	Innovatsion bozor	10.	Innovatsiya strategiyasi
5.	Venchurli moliyalashtirish	11.	Mahsulot innovatsiyasi
6.	Riskli biznes	12.	Texnologiya innovatsiyasi

15-MAVZU. NOMODDIY AKTIVLARGA SAFARBAR ETILADIGAN INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISH

Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar investitsiya ob'ekti sifatida. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati. Nomoddiy aktivlarni baholash va "gudvill". Gudvill tarkibi. Gudvill – investitsiya ob'ekti sifatida.

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan savollarga javob bering.

- Nomoddiy aktivlar deganda nimani tushunasiz?
- Nomoddiy aktivlarning xususiyatlarini izohlab bering.
- Iqtisodiy adabiyotlarda va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nomoddiy aktivlarga qanday ta'rif berilgan?
- Qaysi xorij iqtisodchi-olimlarining nomoddiy aktivlarga bergan ta'riflarini bilasiz?
- Nomoddiy aktivlar boshqa aktivlardan nimasi bilan farq qiladi?
- Nomoddiy aktivlarga nimalar kiradi?
- Intellektual mulk ob'ektlari deganda nimani tushunasiz?
- Intellektual mulk ob'ektlari bo'yicha Butunjahon tashkiloti Konventsiasiga

- ko'ra, ushbu mulk tarkibiga nimalar kiradi?
- Respublikamizda amaldagi qonunchilikka asosan intellektual mulk tarkibiga qanday ob'ektlarni kiritish mumkin?
 - Nomoddiy aktivlarni tasniflab bering.
 - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartida nomoddiy aktivlar qanday guruhlariga ajratilgan?
 - Intellektual mulk ob'ektlarini baholashning huquqiy-me'yoriy asoslarini bilasizmi?
 - Intellektual mulk ob'ektini baholash qanday tartibda amalga oshiriladi?
 - Intellektual mulk ob'ektining qiymati qanday yondashuvlar bilan aniqlanadi?
 - Gudvill deganda nimani tushunasiz?

2-topshiriq. Nomoddiy aktiv deb e'tirof etish uchun mulk ob'ekti quyidagi shartlarga javob berishi talab etiladi:

Nomoddiy aktiv deb e'tirof etish uchun mulk ob'ekti quyidagi shartlarga javob berishi talab etiladi.	- ?
	- ?
	- ?
	- ?

3-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1. Nomoddiy aktivlar	7. Gudvill
2. Litsenziya	8. Intellektual mulk ob'ektlari
3. Patent	9. Mualliflik huquqi
4. Nou-xau	10. Franchayz
5. Tovar belgisi, savdo markasi	11. Intellektual mulk ob'ektlarini baholash
6. Sanoat intellektual mulki	12. Franchayzer

16-MAVZU. INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO'LLARI

“Investitsiya risklari” tushunchasi va uning investitsiya faoliyatidagi o'ziga xos xususiyati. Risklarning tasniflanishi. Investitsiya risklarini aniqlash usullari. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari. Investitsiya loyihalarida risklarni baholashning matematik usullari.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni sanab bering.
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi risklar, ularni boshqarish va baholash ahamiyatini tushuntirib bering.

3. Investitsiya loyihalarini turli risklardan himoya qilish mexanizmlari mohiyati nimalardan iborat ?
4. Investitsiya loyihasini risklarini tasnifini turli tizimlari nimani anglatadi ?
5. Riskdan himoyalash imkoniyatlari nuqtai-nazaridan tasniflash nimalarni nazarda tutadi?
6. O'zbekiston eksportchilariga risklarni himoyasini taqdim etish maqsadida qaysi sug'urta kompaniyasi tashkil etildi ?

2-topshiriq. Tayanch ibora va tushunchalarga izoh bering.

1.	Risk	7.	Texnologik risklar
2.	Investitsion risklar	8.	Kredit riski
3.	Sof risklar	9.	Moliyaviy risklar
4.	Spekulyativ risklar	10.	Tadbirkorlik risklari
5.	Fors major risklar	11.	Transport risklari
6.	Ekologik risklar	12.	Siyosiy risklar

3-topshiriq. Quyidagi masala yechimini toping.

Ikkita bir-birini o'rnini bosuvchi A va B loyihalarni “zararsizlik nuqtasi” hisob-kitobi bo'yicha moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini taqqoslang va samarali bo'lgan loyihani toping.

Ko'rsatkichlar	A loyiha	B loyiha
Sotish hajmi, ming dona	5000	5000
Doimiy xarajatlar, ming p.b.	5000	9000
O'zgaruvchan xarajatlar, p.b. / dona	8	7
Sotish bahosi, p.b./ dona	10	10

4-topshiriq. Quyidagi ma'lumotlarni o'rganing.

Investitsion loyihalar kelajakka tegishli bo'lganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsion qaror bir qator kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlarga ega bo'lgan hollarda, qaror riskli yoki noaniqliklarga ega deb ataladi.

Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zahiralarini yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin.

Risk - bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir.


Loyiha riski - bu investitsion loyihani amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisidir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk - bu bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmaydigan hodisa. Agar bu hodisa bo'lsa ijobiy (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (xarajatlar, zarar, yo'qotish) natija bo'lishi yoki hech qanday natija bo'lmasligi mumkin.

Riskni boshqarish turli faoliyat doiralarida riskni kamaytirish bo'yicha texnologiyalarni va bilimni talab qiladi. Hozirgi vaqtda riskni boshqarish faoliyatini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin: 1) Riskni aniqlash. 2) Riskni baholash. 3) Riskni boshqarish choralari va usullarini tanlash. 4) Riskni oldini olish va nazorat qilish. 5) Riskni moliyalash. 6) Natijalarni baholash.

5-topshiriq. Barqarorlikni tekshirish usulini amalga oshirish ketma-ketligi bo'yicha nuqtalar o'rnini to'ldiring.

Barqarorlikni tekshirish usulini amalga oshirish ketma-ketligi.



Loyiha barqarorligini tekshirish usulida investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari turlicha o'zgartirilganda, ya'ni loyiha stsenariysi turlicha o'zgartirilganda, loyihani amalga oshirish mexanizmi qanday ishlashi va bunda loyihadan kutilayotgan foyda, zararlar va samaradorlik ko'rsatkichining qanday bo'lishi tadqiq qilinadi.

“INVESTITSİYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH” FANI BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT DARSLARI UCHUN MUSTAQIL ISH MAVZULARINING

NAMUNAVIY RO‘YXATI

1. Investitsiya va jamg‘arma o‘rtasidagi bog‘liqlik.
2. Investitsiyalash maqsadlari va bosqichlari.
3. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya faoliyatining mikro va makroiqtisodiy ahamiyati.
4. Intellektual investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.
5. Davlat investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari.
6. Investitsiya faoliyati va infratuzilma.
7. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishning muhim shart-sharoitlari.
8. Investitsiya faoliyati rivojlanishining huquqiy asoslari.
9. Investitsiya faoliyatini tartibga solishning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.
10. Iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar.
11. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati.
12. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining o‘rni va ahamiyati.
13. Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o‘ziga xos xususiyatlari.
14. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tarkibida byudjet mablag‘larining o‘rni va ahamiyati.
15. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo‘shma korxonalar faoliyati samaradorligini ta‘minlash.
16. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashning o‘ziga xos xususiyatlari.
17. O‘zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyali kreditlashni rivojlantirish muammolari.
18. Investitsiya faoliyatini jonlantirishga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta‘siri.
19. Investitsiyalarni jalb etishning jahon tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.
20. Hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar .
21. Investitsiyani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari.
22. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiya jalb qilishni rivojlantirish.
23. Globalizatsiya jarayonlarining investitsiyani rivojlantirishga ta‘siri.
24. Investitsiyalarning samaradorligiga inflyatsiya indeksining ta‘siri.
25. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishga soliq siyosatining ta‘siri.
26. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarni sug‘urtalash.
27. Milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta‘minlashda investitsiya loyihalarining o‘rni va ahamiyati.
28. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning usullari.

29. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklar va ularni boshqarish.
30. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tenderlarni tashkil etish.
31. Investitsiyada lizing kreditidan foydalanish masalalari.
32. Markazlashgan va markazlashmagan kapital qo'yilmalar
33. Investitsiya loyihalarining sezgirligini tahlil qilish va baholash.
34. Investitsiya loyihalarida marketing tahlilining o'rni va ahamiyati.
35. Investitsiya loyihalarining samaradorligini diskontlash usullari asosida baholash.
36. O'zaro ziddiyatli va raqobatbardosh investitsiya loyihalari tahlili.
37. Qarz oluvchi faoliyatini moliyaviy tahlil qilish.
38. Investitsiya loyihalarining "Zararsizlik nuqtasi" tahlili.
39. Inflyatsiya jarayonlarining investitsiya loyihalarini baholashga ta'siri.
40. Qarz oluvchining likvidligi va kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholash.
41. Risk sharoitida investitsiya loyihalari tahlili.
42. Investitsiya loyihalari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.
43. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash.
44. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari.
45. Investitsiya loyihalariga ta'sir etuvchi risklarni pasaytirish chora-tadbirlari.
46. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va uni optimallashtirish masalalari.
47. Xorijiy kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish tartibi.
48. Xalqaro moliyaviy institutlarining kredit liniyalari hisobiga investitsiya loyihalari moliyalashtirish.
49. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) va uning kredit liniyasi hisobiga loyihalarni moliyalashtirish xususiyatlari.
50. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va uning loyihalarni kreditlash mezonlari.
51. Investitsiya loyihalarni uzoq muddatli kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari.
52. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asosnomasini (TIA) tuzishning o'ziga xos xususiyatlari.
53. Islom taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan loyihalarni moliyalashtirish xususiyatlari.
54. Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xususiyatlari.
55. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari.
56. Investitsiya loyihalari byudjetdan moliyalashtirish mexanizmi.
57. Venchur kapitali hisobiga investitsiyalarni moliyalashtirish istiqbollari.
58. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi va uni aniqlash yo'llari
59. Investitsiya loyihalarini markazlashmagan investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish.
60. Iqtisodiyotning real sektor korxonalarini moliyalashtirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 y. 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 y. 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2014 y. 9 dekabr. Yangi tahrir.
4. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. 1999 y. 14 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF- 4434-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi "2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720 sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 17 noyabrdagi "2015 yildagi O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2264-sonli Qarori
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarori
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrdagi "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-2454-son Qarori
13. Bodie Kane Marcus. Investments: An Introduction. Rhodes University Великобритания, 2014 Prof. Dr AP Faure
14. Vaxobov A.V., Xojibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma.- T.: Moliya, 2010.-328 b.
15. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. Т.: Молия, 2011.-300 с.

16. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisodiyot, 2010.-166 b.
17. Mamatov B., Xujamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 608 b.
18. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010. - 496 b.
19. Karlibaeva R. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lpon, 2011.-124 b.
20. Muratov R., Jalolova I., Oripov S. "Korxona iqtisodiyoti". Darslik.- T.: "Fan va texnologiya", 2014. 91-b.
21. Nazarova G., Xalilov X., Safarov N. Erkin iqtisodiy hududlar /prof. A.Sh.Bekmurodov tahriri ostida (darslik), TDIU, 2011 y.
22. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 7-е изд., - М.:«Дашков и Ко», 2008.– 372 с.
23. Oblomurodov N.N. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari. T.: "Fan", 2009, 110 b.
24. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. T.: "Extremum-press", 2013.-176 b.
25. Toshov O. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. T.: "Akademnashr", 2012.-165 b.
26. Хазанович Э.С. Иностранные инвестиции: Учебное пособие/ Э.С.Хазанович.2-е изд., стер.-М.:КНОРУС, 2011.-312с.
27. Хамидова Ф.А. Приоритетные направления привлечения финансовых инвестиций. T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014.- 86 с.
28. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Muminova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: Sharq matbaa nashriyot uyi, 2014.- 208 b.
29. Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. -Ростов на Дону.: Феникс, 2006.-272 с.
30. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 272 с.
31. G'ozibekov D.G', Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. - 88 b.

MUNDARIJA

Kirish	3
I. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanini o’qitishda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati.....	3
II. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanidan o’tiladigan mavzular va talabalarga qo’yiladigan talablar.....	4
III. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanining har bir mavzusi bo’yicha mustaqil ta’lim topshiriqlari.....	7
IV. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fani bo’yicha amaliy mashg’ulot darslari uchun mustaqil ish mavzularining namunaviy ro’yxati.....	46
V. Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro’yxati	48

